

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida  
Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda  
ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar to’g’risida  
H I S O B O T**

“NKMK” AJda (*keyingi o‘rinlarda - Kombinat*) korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash yo‘nalishida 2024 yil yanvar-sentabr oylari davomida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan,

**Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida:**

Kombinatning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens xizmatiga (*keyingi o‘rinlarda - Xizmat*) **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan 14 nafari xodimlar bilan to‘ldirilgan. Hozirda 1 ta vakant lavozimlarga xodimlarni ishga olish bo‘yicha tanlov jarayonlari davom etmoqda.

Kombinat tomonidan 2024-yil 10-yanvarda Komplayens xizmatining **12 banddan** iborat “NKMK” AJda 2024-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash yo‘nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturi va 2024-yil 30-yanvarda Kombinat tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha **9 ta banddan** iborat yo‘l xaritasi tasdiqlangan va ijrosi nazoratga olindi.

Kombinatda **2024-yildan** aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va boshqaruviga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan va ularning so‘roviga ko‘ra yuboriladigan hujjatlar loyihalari, Bosh direktor va bosh direktor o‘rinbosarlari qabullari yakuni bo‘yicha tuzilgan bayonnomalar loyihalarini Bosh yuriskonsult va Komplayens xizmati tomonidan **huquqiy va korrupsiyaviy ekspertizasidan o‘tkazish tartibi** joriy etildi. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha **97 ta** (*32 ta fuqaro qabullari bo‘yicha va 65 ta boshqaruvga ko‘rib chiqish uchun kiritilgan*) hujjatlarning qonuniyligi ko‘rib chiqildi.

Komplayens xizmati tomonidan jami **5876 ta** (*5072 ta buyruq va 804 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **428 ta** ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Kombinatning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo‘linmalarida 2024-yil 1-choragida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **947 ta** funksiyalar baholanib, shundan **3 ta** “yuqori”, **45 ta** “o‘rta” va **899 ta** “past” darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2024-yil 20-fevralda **46 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi.

Bugungi kunda dasturning **30 ta** bandi ijrosi to'liq ta'minlandi, xususan Dasturning 10-bandi ijrosi yuzasidan 2024-yil 17-aprelda Kombinatda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini hisobga olish va nazorat qilishning yagona axborot tizimi (<https://tb.ngmk.uz/>) joriy etildi hamda Dasturning 11-bandi ijrosi yuzasidan 2024-yil 1-maydan Shimoliy kon boshqarmasida suv resurslarini, atmosfera havosini, tuproqlarni ifloslantiruvchi manbalarni, shuningdek yer osti suvlarining ifloslanishini monitoring va nazorat qilish bo'yicha elektron dastur yo'lga qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida Kombinat ishchi-xodimlari bilan **123 marotaba** (jumladan, 96 ta seminar, uchrashuv va davra suhbat, 20 marotaba rasmiy veb-sayt, 2 ta gazeta, 3 marotaba televideniya, 2 marotaba radioda) huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlarida **7048 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.

Xususan, joriy yil aprel-may oylarida Markaziy kon boshqarmasining 24 ta bo'linmalarida "Biz yoshlar – korrupsiyaga qarshimiz" va "Ogohlik – davr talabi" mavzularida, shu bilan birga Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq kodeksi va Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tushuntirish yuzasidan o'quv seminarlari tashkil etildi. Seminarda 2801 nafar ishchi xodimlar ishtiroki ta'minlandi.

Shu bilan birga, joriy yil may oyida Janubiy kon boshqarmasining 6 ta bo'linmalarida o'quv seminarlari tashkil etildi. Seminarda 710 nafar ishchi xodimlar ishtiroki ta'minlandi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtga qadar Janubiy kon boshqarmasining **5708 nafar** xodimlari "Korrupsiyaga qarshi (Compliance) elektron kursi bo'yicha o'qitildi.

Xizmat xodimlari tomonidan jami **27 marotaba** shundan, **16 marotaba** onlayn va **11 marotaba** oflayn malaka oshirish kurslarida ishtirok etildi. Jumladan, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasi (*International Anti-Corruption Academy*)ning "Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun xabar berish tizimi" yo'nalishida **8 ta**, Xalqaro komplayens tizimini joriy etish yo'nalishida **8 ta**, AQShdagi Pensilvaniya universitetining "Komplayensning boshlang'ich asoslari", "Komplayens dasturlarini samarali ishlatish", "Maxfiy hujjatlar va ma'lumotlarni himoya qilish" yo'nalishida **5 ta** va "AQSh va Yevropa ittifoqining Rossiyaga qarshi sanksiyalari va eksport nazorati" yo'nalishida **1 ta** va boshqa yo'nalishlar **5 ta** sertifikatlarini olindi.

O'tgan davr mobaynida Komplayens xizmatiga jami **558 ta** ijro hujjatlari kelib tushgan bo'lib, ijro muddati kelgan **395 tasining** ijrosi o'z vaqtida ta'minlandi. Xususan, **46 ta** yuridik va jismoniy shaxslardan murojaatlar kelib tushgan, shundan **41 tasiga** huquqiy tushuntirish berilgan, **5 ta** murojaat qisman qanoatlantirilgan.

Shu bilan birga, Kombinatga xodimlarni ishga qabul qilish va boshqa ishga o'tkazish bo'yicha komissiyaning **318 ta** hamda homiylik va xayriya yordamlarini

ko'rsatish komissiyasining **56 ta** yig'ilishlarida komissiya a'zosi sifatida ishtirok etildi.

Tanlov asosida ishga qabul qilinuvchi **1151 nafar** nomzodlar ustidan "NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma talablari asosida tekshiruvlar amalga oshirildi. Nomzodlarni tekshirish natijasida **1150 ta** ijobiy va **1 ta** salbiy xulosalar berildi.

Tanlov va mehnat qonunchiligi doirasida ishga qabul qilingan **1151 nafar** xodimlarning mehnat shartnomalariga hamda "NKMK" AJ tomonidan tuzilgan **17 654 ta** xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilishi ta'minlandi.

O'tgan davr mobaynida jami **38 marotaba** o'rganish va xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, bunda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan **30 nafar** ishchi-xodimlar intizomiy javobgarlikka tortildi.

O'tkazilgan monitoringlar natijasida **65 ta** holat **manfaatlar to'qnashuvi holatlari** aniqlanib, shundan, **14 ta** holatda xodimlar boshqa lavozimga o'tkazildi, **5 ta** holatda Odob-axloq komissiyasi tomonidan xodimlar o'z lavozimida qoldirish bo'yicha qaror qabul qilindi, **45 ta** holatda kelgusida ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

Xaridlar sohasida "Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha" Komissiyasi (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **3 ta** tender va **26 ta** tanlash hujjatlari bo'yicha tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko'rib chiqilib, qonuniylik ta'minlandi.

Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi bo'lgan **60 ta** kontragentlarning faoliyati tekshirildi. Hisobot davrida **1 ta 3,5 mlrd. so'mlik** tanlovning asossiz bekor qilinishi oldi olindi.

Bundan tashqari, "NKMK" AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar bo'yicha nazorat qiluvchi Komissiya (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **14 ta** kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazoratdan o'tkazildi. Shundan, **12 tasi** bo'yicha ijobiy va **2 tasi** bo'yicha salbiy xulosa berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini **reyting baholash** tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qaroriga ko'ra, 2024 yilning 3-choragi bo'yicha **29 turdagi** ma'lumot va hisobotlar "E-Anticor.uz" elektron platformasiga kiritildi.

### **Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash sohasida:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 154-son Farmoni ijrosi yuzasidan tegishli

ma'lumotlarning belgilangan muddatlarda Kombinatning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi ta'minlanmoqda.

Kombinatning [www.nkmk.uz](http://www.nkmk.uz) rasmiy veb-saytida hamda ichki portal (*kombinat xodimlari uchun joriy etilgan*)da joriy etilgan **“Korrupsiyaga qarshi kurashish”** va **“Ochiq ma'lumotlar”** bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Komplayens xizmatining mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirildi hamda ushbu ma'lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi.

Kombinat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxonalar ishchi-xodimlari ishtirokida **2024-yil 24-yanvar kuni** Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida **brifing** o'tkazildi.

Shu bilan birga, Kombinatning 2024-yil 9-fevraldagi tegishli buyrug'i bilan “NKMK” AJning faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar, ularni yangilab borish muddatlari va mas'ul ijrochilar ro'yxati hamda ma'lumotlarning namunaviy shakllari tasdiqlandi. Mazkur ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda rasmiy veb-saytga e'lon qilinishi nazorat olindi.

2024-yil avgust oyida Kombinat Markaziy apparati “SERT International” xalqaro sertifikatlovchi tashkilot tomonidan o'tkazilgan 2 bosqichli tashqi audit yakuni bo'yicha ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” xalqaro standart talablariga muvofiqligi tasdiqlandi va xalqaro sertifikatga ega bo'ldi.